



UO'K: 811.512.133 (062)

**INGLIZ VA O'ZBEK MAISHIY ERTAKLARIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALARNI  
IFODALOVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIK TAHLILI****SEMANTIC ANALYSIS OF LEXEMES REPRESENTING THE BASIC CONCEPTS IN  
ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD TALES****СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ ОСНОВНЫЕ  
ПОНЯТИЯ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ БЫТОВЫХ СКАЗКАХ**

Yusupova Omina Muhammadzoi qizi   
Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz hamda o'zbek maishiy ertaklarida mavjud bo'lgan asosiy tushunchalarni ifoda etuvchi leksemalarning semantik xususiyatlari tahlil etilgan. Bunda asosan maishiy ertaklarning yetakchi tushunchalari bo'lmish "ezgulik" va "yovuzlik", "donolik" va "nodonlik" oppozitsiyalari leksik-semantik jihatdan tadqiq etilib, turli tizim tillardagi misollar orqali dalillab berilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki xalq maishiy ertaklarida keng tarqalgan leksemalarni semantik nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o'rganishdir. Tadqiqotlar va misollar tahlili asosida qiyoslanayotgan tillardagi maishiy ertaklar va ularning asosiy tushunchalarini ifoda etadigan qarama-qarshi leksemalarning semantik jihatlari haqida xulosa qilinadi.

**Аннотация**

В данной статье анализируются семантические особенности лексем, выражающих Основные понятия, присутствующие в английских и узбекских бытовых сказках. При этом противопоставления "добра" и "зла", "мудрости" и "невежества", которые в основном являются ведущими понятиями бытовых сказок, лексико-семантически исследованы и доказаны на примерах в различных системных языках. Основная цель исследования-более глубокое семантическое изучение лексем, распространенных в двух народных бытовых сказках. На основе исследований и анализа примеров делается вывод о семантических аспектах бытовых сказок на сравниваемых языках и противоположных лексемах, выражающих их Основные понятия

**Abstract**

This article analyzes the semantic features of lexemes expressing the Basic concepts present in English and Uzbek household fairy tales. At the same time, the oppositions of "good" and "evil", "wisdom" and "ignorance", which are mainly the leading concepts of everyday fairy tales, are lexically and semantically investigated and proved by examples in various system languages. The main purpose of the study is a deeper semantic study of the lexemes common in two folk household tales. Based on research and analysis of examples, a conclusion is drawn about the semantic aspects of household tales in the compared languages and opposite lexemes expressing their Basic concepts.

**Kalit so'zlar:** maishiy ertaklar, leksemalar, ezgulik, yovuzlik, donolik, nodonlik, folklor, semantik tahlil.

**Ключевые слова:** бытовые сказки, лексемы, добро, зло, мудрость, глупость, фольклор, семантический анализ.

**Key words:** household tales, lexemes, goodness, evil, wisdom, stupidity, folklore, semantic analysis.

**KIRISH**

Ertaklar mavzusida jahon tilshunoslikda va folklorshunoslikda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar asosan qiyosiy kontekstda olib borilishi hozirgi davrning muhim talablaridan biridir. Ertaklarni tahlil qilish jarayonida ingliz va o'zbek ertaklari 3 ta asosiy guruhga: a)sehli-fantastik ertaklar; b)hayvonlar haqidagi ertaklar; c)hayotiy-maishiy ertaklarga bo'linishi hamda har bir ertak turi o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan hayotiy-maishiy ertaklarda voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olinib, kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otada va ular muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlar hisoblanadi. Maishiy ertaklarda ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, egrilik va to'g'rilik, donolik va nodonlik, muhabbat va nafrat hamda boshqa ko'plab qarama-qarshi axloqiy tushunchalarni uchratamiz. Yuqorida keltirib o'tilgan qarama-qarshiliklardan eng muhimlari ezgulik va yovuzlik,

donolik va nodonlik tushunchalari hamda ularni ifodalavchi leksemalar bo'lib, bular tadqiqotimizning muhim ahamiyatini ochib beradi. O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan bu kabi tushunchalar ingliz ertaklarida mavjud bulgan tushunchalar bilan ba'zida to'liq, ba'zi bir o'rinlarda qisman o'xshash va mushtarak kelishi kuzatiladi. Bunday o'xshashlik va moslik ularning nomlanishida ham, leksik birliklarida ham kuzatiladi. Shu jihatdan ingliz va o'zbek maishiy ertaklarida uchraydigan ezgulik va yovuzlik, donolik va nodonlik leksemalarining semantik xususiyatlarini qiyoslab o'rganish muhim tadqiqotlardan sanaladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek maishiy ertaklarini birinchilardan bo'lib Q.Beknazarov chuqur tadqiq qilgan. U o'zining tadqiqotida maishiy ertaklarni turlarga bo'lganligi, lekin bu tasniflash oxirgisi emasligi hamda uni davom ettirish mumkinligi haqida qimmatli fikrlarni keltirib o'tgan. Tadqiqotchi olim maishiy ertaklarni quyidagi turlarga ajratadi:

1) Sotsial xarakterdagi ertaklar: -nohajviy ertaklar; -haqiqiy ertaklar; -satirik ertaklar.

2) Ilmiy xarakterdagi ertaklar: -nohajviy ertaklar; -hajviy ertaklar; -yumoristik ertaklar.

Yuqoridagi tasnifga ko'ra, maishiy ertaklarning asosiy qismini hajviy ertaklar tashkil qilib, ko'plab ertaklarda satirik, yumoristik voqealar mavjudligini bilishimiz mumkin.[5,109]

Maishiy ertaklarni o'qigan insonda jiddiy fikr-mulohazalar uyg'onadi, chunki bu turdagi ertaklar muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan folklor asarlar hisoblanadi. Ular bilan tanishgan kishi jasurlik, yurtga fidoyilik, mehribonlik, ezgulik, vafodorlik, sahiylik haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi hamda o'zida ham ertaklar qahramonlaridagi ezgu fazilatlarini bo'lishini xohlab, shunga intiladi. Ta'kidlash joizki, xalqimizda "Ertaklar - yaxshilikka yetaklar" degan naql bejiz aytilmagan, chunki ular shunchaki ko'ngil ochish vositasi yoki ermak bo'lmay, balki yaxshi suhbatdosh, bizni ezgulikka undovchi, zavq bag'ishlovchi ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi ertaklarga sirasiga "Zumrad va Qimmat", "Oygul bilan Baxtiyor", "Ziyod botir", "Tohir va Zuhra", "Donishmand cho'pon", "Farhod va Shirin", "Malikayi Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" "Dono qiz" kabi ertaklarni kiritishimiz mumkin. Yu.V.Mamanovning fikriga ko'ra maishiy ertaklarda mavjud bo'lgan leksemalar xalq xarakterini o'rganishda eng qulaylaridan biri bo'lib chiqadi, chunki u o'zining barqarorligi va konservatizmi tufayli butun bir xalqning tilini saqlab qolgan va avlodlarga o'tkazib kelgan.[3,62]

Turli xil mavzudagi kundalik ertaklar nutqning ma'lum bir turi bo'lib, ularning o'ziga xos dunyosini tasvirlashga xizmat qiladi. Shuning uchun nutqning bu turini tahlil qilishda biz nafaqat real dunyo, balki ertak olami haqidagi bilimimizga murojaat qilamiz. Agar ertakda faqat ertak dunyosi tasvirlangan bo'lsa, kundalik ertak ularni ma'lum bir tarzda sintez qiladi. Haqiqiy odamlar bu yerda harakat qilishadi, lekin noreal vaziyatda, ba'zida butun bir xalqning orzusini o'zida mujassam etgan natijalarga olib keladi.[3,64]

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida yaxshilik va yomonlik tushunchalariga to'liq izoh berib o'tilgan. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insofilik, adolat, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik - yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. [6] N.Yu.Mospanovning fikricha "Ertaklarda "yomonlik" semantik komponentli ko'p sonli leksemalar ekspressivlikni oshiradi va so'zlovchining o'z hikoyasiga nisbatan hissiy, shaxsiy munosabatini bildiradi. Yovuzlik qanchalik dahshatli va kuchli bo'lsa, odatda ertakda g'alaba qozonadigan yaxshilik shunchalik qimmatlidir." [4,53] Ma'lumki, o'zbek ertaklarida yaxshilik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, bolalardan tashqari katta yoshli o'quvchilar uchun mo'ljallangan ushbu ertaklarning ma'noviy manzili bir xil, ya'ni yaxshilikka yetaklashdir. Bunda esa ijobiy qahramonlarning o'рни muhimdir. Bular Zumrad, Kenja Botir yana bir boshqa ertakda esa chol obrazida namoyon bo'ladi. Ingliz maishiy ertaklarida esa oddiy xalq yoki "Jek" nomi ezgulikni, donolikni ulug'laydigan qahramon sifatida keltiriladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Quyidagi ko'pab misollar orqali ingliz va o'zbek maishiy ertaklarida mavjud bo'lgan "ezgulik" va "yovuzlik", "donolik" va "nodonlik"ni ifoda etuvchi leksemalarning semantik va qiyosiy jihatlarini tahlil qilamiz. Aytish joizki, ko'pgina ertaklarning nomlarida ham ezgulik va yovuzlikni ifodalavchi leksemalarni ko'rishimiz mumkin hamda ular ertak mazmunidagi ikki qarama-qarshi

## TILSHUNOSLIK

tushunchalarni ochib bera oladi. Bunga “Zulm va qasos”, “Zolim podshoh” “Egriboy va To’g’riboy”, “Tuhmat balosi”, “Johil podshoh va Abu Ali”, “Dono qiz”, “Donishmand chol” kabi ertaklar misol bo’la oladi. Lekin bu kabi ertaklarda ezgulik, donolik yomonlik, nodonlik ustidan g’alaba qozonadi.

O’zbek maishiy ertagi “Malikayi Husnobod”da zolim podshoh xalqini ko’p qiynaydi, o’z qizi Malikai Husnobodni ham bergan jumbog’iga tog’ri javob berganidan g’azablanib o’limga mahkum etadi. Ertak “Zamonlarning zamonida, qadimal ayyomda zolim podshoh bor ekan” deya boshlanadi. Yovuzlik komponenti hisoblanmish *zolim* leksemasi ertakda ko’p o’rinlarda uchraydi. Bundan tashqari **g’azablanibdi, qilichdan o’tkazibdi, boshini tanasidan judo qilibdi, zindonga tashlab, xor-zorlik bilan o’ldiradi, dorga ostirdi, go’shtini bittadan tikanga ilaman, tirik qoldirmayman** va boshqa ko’plab yovuzlikni ifoda etuvchi tushunchalarni ertakda ko’plab uchratishimiz mumkin. Salbiy so’zlardan tashqari ijobiy ezgulikni ifoda etuvchi leksemalar ham mavjud bo’lib ularga **mehribon, adolatli, sahiy, oq ko’ngil** kabi sifatlarni misol qila olamiz. Qiz odamlarga ko’p yaxshiliklar qiladi, yomon hukmdorlarni jazolaydi, adolatni qaror toptiradi va ezgu qahramon sifatida ertakda ulug’lanadi. “Husnobod eri bilan bu yurti ham idora qilib, zindonda begunoh yortganlarni ozod qilibdi. Ulardan bir qanchasini shaharlarga hokim qilib tayinlabdi.” [7,220]

“Zulm va qasos” ertagining asl mohiyatida ham podshoh qiziga qilgan zulmiga yarasha jazolanadi, qaroqchilarga talanib, qalandar bo’ladi va o’z qizi tomonidan qattiq jazolanadi. “Qiz qalandarni ko’rishi bilanoq o’z otasi ekanini bilibdi-da, darhol jazolashni buyuribdi. Shahzoda ko’nmabdi. Lekin qiz otasining o’z qiziga qattiq zulm qilganini yana qayta gapirib beribdi-da, uni jazolashga buyuribdi.” [8,238]

“Zolim podsho” ertagida juda ham yovuz, zolim podsho, uning qilgan yomolliklari tasvirlanadi. Ertak quyidagi so’zlar bilan boshlanadi: “Bir bor ekan, bir yo’q ekan qadim zamonda bir podsho bor ekan. U, shu qadar zolim va johil ekanki, ta’biga kelgan har qanday noma’qul ishni qilaverar ekan.” [8,993] Shu o’rinda aytish joizki, ertakda yovuzlik leksemasini ifoda etadigan tushunchalar juda ko’p uchraydi: **boshi o’limda, moli talonda, g’azblanibdi, o’dag’aylabdi, zindonga tashlabdi, o’ldiraveribdilar, og’ziga qo’rg’oshin quydirmoq, dahshat qilib, o’limga buyuribdi, do’q urmoq, azob bermoq, terisini shildirmoq, ming xil azob bilan o’ldirmoq, kallasini sapchaday uzmoq, til tortmay olmoq** va boshqalar.

“Johil podsho va Abu Ali” maishiy ertagida ham ezgulik va yovuzlikni ifoda etuvchi ko’plab leksemalarni uchratishimiz mumkin. Masalan, **xushaxloq, rahmdil, bolajon, mehribon, bag’rikeng, ko’ngli sahiy, baxtli, osuda; g’azabi qo’zimoq, quvib chiqarmoq, sarson-u sargardon, sharmandayi sharmisor qilmoq, o’ldirmoq, boshini uzmoq, nodon, johil** va boshqalarni keltira olamiz.

Ingliz maishiy ertagi “Mr.Miacca” bolalarning sevimli ertaklaridan biri bo’lib, unda yomon xulq-atvorli bolakay Tommy Grimes boshdan o’tkazgan daxshatli voqealar o’rin olgan. Ertak “TOMMY GRIMES was sometimes a good boy, and sometimes a bad boy; and when he was a bad boy, he was a very bad boy. “for many a long day he was as good as good could be, and never went round the corner of the street.” [2,104]

Ingliz ertaklarida ham o’zbek ertaklarida ham uchraydigan o’gay ona asosan yovuzlik timsoli bo’lib, u doimo yomonlik qiluvchi, hamma yomon ko’ruvchi zolim hisoblanadi. Misol uchun, ingliz maishiy ertaklaridan biri “The Rose-Tree”da ham o’gay onaning yovuzliklari ko’rsatib berilgan: “THERE WAS ONCE UPON A TIME a good man who had two children: a girl by a first wife, and a boy by the second. The girl was as white as milk, and her lips were like cherries. Her hair was like golden silk, and it hung to the ground. Her brother loved her dearly, but her wicked stepmother hated her.” [2.16]

“Whittington and his cat” ertagida Whittington xizmatkor bo’lib kun ko’radi, savdogarning sichqon va kalamushlarga to’la bo’lgan bir hujradan joy oladi. (Here he was soon seen by the cook-maid, who was an ill-tempered creature, and happened just then to be very busy dressing dinner for her master and mistress.) Bu orada unga oshpaz zulm qilib, ko’p azob beradi, savdogarning qizi esa unga yordam tariqasida pul beradi, bechora yigit bu pulga mushuk sotib olib, kemiruvchilardan xalos bo’ladi. Quyida keltirilgan parchada oshpazning bechora Dickga qilgan yovuzliklari ta’svirlangan: “She used to say: “You are under me, so look sharp; clean the spit and the dripping-pan, make the fires, wind up the jack, and do all the scullery work nimbly, or—” and she would

*shake the ladle at him. Besides, she was so fond of basting, that when she had no meat to baste, she would baste poor Dick's head and shoulders with a broom, or anything else that happened to fall in her way.*" [2.107]

"Titty Mouse va Tatty Mouse" ertagida ham quyidagi leksemalar mavjud va ular yovuzlikni ifoda etadi.

poor - deserving pity or sympathy; unfortunate.

horrid - very bad or unpleasant.

dreadful - causing great fear or suffering; shocking.

worse - bad to a greater degree or on a greater scale.

lose - to have smth/sb taken away from one by accident; old age, death. [3.106]

Maishiy ertaklarda ezgulik va yovuzlik leksemalari bilan bir qatorda donolik va nodonlikni ifodalovchi leksemalar ham tadqiqotimizning muhim qismi hisoblanadi. Qahramonni tavsiflash uchun intellektual bahoga ega so'zlarning ustunligi ingliz kundalik ertaklarining ikkita yetakchi tushunchasi intellektual faoliyat bilan bog'liq tushunchalar, ya'ni "nodonlik" va "donolik" degan fikrni ilgari surishga imkon beradi. Ingliz tilidagi maishiy ertaklarda bu tushunchalar "*silly, fool, stupid*" va "*wise*" leksik birliklari bilan ifodalanadi. [3,77] O'zbek maishiy ertaklarida esa **ahmoq, laqma, sodda, go'l, tentak va dono, aqli, zehni, ayyor, donishmand** kabi ko'plab leksik birliklarni ko'rishimiz mumkin. Donolik tushunchasi insonning ham axloqiy, ham intellektual qobiliyatlari rivojlanishining eng yuqori darajasini nazarda tutadi, ular orasida hayotiy tajriba natijasida olingan bilimlar muhim o'rinni egallaydi.[1] Masalan "The Story of Mr Vinegar" ertagida keltirilgan quyidagi parchada ham nodonlikni ifoda etuvchi leksemalarni ko'rishimiz mumkin; "stupid boy - Dear me! - you stupid lout-you silly fellow-you ninnyhammer"[3,111]

"Lazy Jack", "The History of the Four Kings", "The Miser and his Wife", "The three big sillies" maishiy ertaklarida ham donolik va nodonlikni ifodalovchi **silly, simpleton, stupid, fool, easily deceived, blockhead, wise, learned, wit, clever** kabi leksemalar ko'plab uchraydi. Bundan tashqari, o'zbek maishiy ertaklarida shu kabi ko'plab misollarni topish mumkin. "Uch og'a-ini botirlar" ertagining qahramonlari o'zlarining donoligi bilan podshohni lol qoldirib, izzat-ikrom bilan mukofotlanadi. Ta'kidlash kerakki, biz tadqiqotimizda bu kabi juda ko'p misollarni chuqur tahlil qildik hamda o'zbek va ingliz maishiy ertaklaridagi leksemalarni qiyoslash orqali samarali natijalarga erishdik.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, tadqiqotimizning asosi bo'lgan maishiy ertaklarda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, adolatsizlikka uchragan qahramonning qiyinchiliklarga uchrab, adolatga erishishi, donolikning nodonlikdan ustun kelishi kabi holatlar mavjud. Qolaversa, bu turdagi ertakning qahramonlari donoligi, so'zamonligi bilan boshqa turdagi ertak qahramonlaridan ajralib turadi. Aytish joizki, turli tizimli tillardagi maishiy ertaklarda "ezgulik" va "yovuzlik" "donolik" va "nodonlik" asosiy tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tadqiqotimizda muhim o'rin egallaydi. Ularning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'zbek va ingliz xalqlari folkloridagi o'xshash va farqli jihatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crabb's English Synonyms/ ed. by G. Crab. - LND, Henley, 1977. - 716 p. / Назаров В. И. Феноменология мудрости: образы мудреца в истории культуры. - Тула, 1993. - 330 с.
2. ENGLISH FAIRY TALES COLLECTED BY JOSEPH JACOBS, 2005 The Pennsylvania State University.
3. МАМОНОВА Юлия Вахтанговна Когнитивно-дискурсивные особенности лексики английской бытовой сказки. Дисс. ... канд. филол. наук. Москва – 2004.
4. МОСПАНОВА Наталья Юрьевна. КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОППОЗИЦИЯ «ДОБРО - ЗЛО» В ФОЛЬКЛОРНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА (на материале русских народных сказок). Дисс. ... канд. филол. наук. 2005.
5. Q.Beknazarov. O'zbek xalq maishiy ertaklari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-1998.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti 2000-2005.
7. "O'zbek xalq ertaklari" I jild, Toshkent-2007, 220-bet,
8. "O'zbek xalq ertaklari" III jild, Toshkent-2014, 238-bet
9. Dildora, G., & Omina, Y. (2023). JAHON TILSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING O'RGANILISHI. Involta Scientific Journal, 2(5), 118-122.

## TILSHUNOSLIK

10. Yusupova, O. (2023). JAHON VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING TURLICHA TASNIFLANISHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8). 270-276.

11. Jurayeva, M. (2023). KNOWLEDGE OF FOREIGN LANGUAGES IN TECHNOLOGY IS THE DEMAND OF THE TIMES. Solution of social problems in management and economy, 2(11), 65-69.

12. Alieva S., Rozikova G. LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 227-232.

13. Ганиева, Д. А. (2016). PROBLEM OF PRIMARY AND SECONDARY FUNCTIONS IN LINGUISTICS. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 66-68.

14. Uzaqova O. M. TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) NING AHAMIYATI VA UNI O'QITISH MASALALARI. Acta CAMU, 1(ISSN: 2181-4155), 129–134.

15. Hakimova, Z. T. Q. (2022). Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar. Science and Education, 3(5), 1976-1981.

16. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 1-4.